



Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar iste'dodini namoyish etuvchi zamonaviy texnologiyalar nomli metodik qo'llanmasi

Xasanova Saxiba Mamatovna

Toshkent viloyati Angren shahar

7-umumiy o'rta ta'lim maktabi

tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu uslubiy tavsiyada tasviriy san'at darslarida o'quvchilar iste'dodini namoyish etuvchi zamonaviy texnologiyalar haqida to'xtalib o'tilgan bo'lib, unda ushbu fanning maqsad hamda vazifalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: uslub, iste'dod, tasviriy san'at, zamonaviy texnologiyalar, qobiliyat.

Mavzuning dolzarbligi: darslarda rasm chizishda qobiliyatli, iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va o'qitishda ilg'or ta'limga murojaat etish.

Maqsad: yosh avlodning iste'dodini yuksaltirish, ularga to'g'ri yo'nalish berish, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni qiziqtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

Reja:

1. Tasviriy san'at fanining maqsad va vazifalari, fanni o'qitishning mazmun-mohiyati.
2. Tasviriy san'at darslarida foylaniladigan zamonaviy texnologiyalar.
3. Darslarda interfaol usullardan foydalanishning ahamiyati.

“Bolalarning rasm chizib o'rganishlari, ularning faqat tasviriy san'atlarga qiziqishlari uchun emas, balki ularni ko'zlarini o'tkir, qo'llarini ixcham bo'lishi uchun ham foydalidir”

Jan-Jak Russo

Ilmiy texnik taraqqiyot XX asr oxiriga kelib faqatgina ko'plab ishlab chiqarish sohaslarini texnologiyalashtirishga sabab bo'lib qolmay, balki madaniyat sohasiga, bilimlar gumanitar sohaslariga ham kirib keldi. Bugungi kunda biz endi axborot, tibbiyot texnologiyalari haqida gapiramiz, shu jumladan ta'lim sohasida ham. Ammo o'quvchilar ongiga milliylikni singdirish har bir ustozning asosiy vazifalaridan biridir. Zero, har bir inson dunyoga kelgandan boshlab tevarak atrofga qiziqadi. Turli ranglarni ko'radi. Atrofdagi narsalarni dastlab shakl



sifatida emas, gamma (dog‘) holatda ko‘radi. Uzoqdagi narsalar yaqin bo‘lib ko‘rinadi. To‘q narsalarga qarab intiladi. Demak rang sezish qobiliyati yoshlikdan boshlanadi. Shuning uchun bolaga yoshlikdan to‘q rangli (rango-rang) o‘yinchoqlar olib berilib, uning rang sezish, shakl sezish qobiliyatlarini o‘stirib borish darkor. Bola tevarak atrofga zavq bilan boqadi va undan taassurot ola boshlaydi. Tabiatda chiroyli va qiziqarli ko‘rinishlar juda ko‘p. Osmono‘par tog‘lar, oppoq paxtazorlar, qalin yam-yashil o‘rmonlar, oltin rangga kirgan bug‘doyzorlar, zilol suvli daryolar va ko‘llar, shildirab oqayotgan soylar, qip - qizil lolalar bilan qoplangan o‘tloqlar kishiga naqadar zavq bag‘ishlaydi. Ular yilning har bir faslida o‘z go‘zalligini yo‘qotmaydi. Bolalarni san‘atni sevishga o‘rgatish shu ruhda tarbiyalash avvalo oilaga bog‘liq. Bolaning tili chiqib, sekin asta tevarak-atrofdagi narsalarni qiziqib so‘ray boshlaydi, ya‘ni masalan “bu nima?”, “nima uchun?”, “qanday?” kabi savollarni ko‘p beradi. Bolalarning bu savoliga erinmasdan javob berish, to‘g‘ri tushuntirish uchun ota-onada ham ma‘lum tayyorgarlik bo‘lishi kerak. Bolalarda yoshlik chog‘idan boshlaboq (avval bolalar bog‘chalarida, keyinroq maktabda) estetik va ekologok boyliklarga olijanoblik bilan munosabatda bo‘lish tuyg‘usi tarbiyalana boradi.

Bu holatni mustaqil bo‘lgan vatanimiz turmush tarzi taqozo etadi va qaror toptiradi. Biroq, tabiatga alohida ehtirom ko‘rsatish, uning rango-rang go‘zalliklarini asrab-avaylash faqat biror tuzum jarayonida yuzaga kelib, kamol topadi deb hisoblash noto‘g‘ri. Bu olijanob fazilat dono ota- bobolarimizdan ko‘p asrlar mobaynida meros bo‘lib kelgan. Ular biror bolaning daraxt shoxini sindirish, mahalladagi hovuzga va suvga nopok narsa tashlashni, ko‘chaga axlat to‘kishni va shunga o‘xshash narsalarni “gunohi azim” deganlar.

San‘at asarlari orqali bolaga estetik tarbiya berish, masalan tasviriy san‘at muzeylariga sayohat, tasviriy san‘at asarlarini tahlil qilib berish bola ongiga ta‘sir qilmay qolmaydi. Bola asardagi go‘zallikni sezsa, asardagi tabiatni his etsa, uni avaylashga intiladi. Masalan, oddiy bir daraxtning shakli, tuzilishi, plastikasi, yam-yashil barglari, qirmizi mevalari va uning inson uchun foydasini sezgan bola o‘sha daraxtni sindirmaydi.

O'quvchilar asosiy vaqtlarini maktabda o'tkazishlarini hisobga olgan holda o'qituvchilar bolalarning zerikib qolmasliklari va darsga nisbatan qiziqishning so'nishiga yo'l qo'ymasliklari kerak. Dars davomida qisqa jismoniy mashqlar o'tkazilsa o'quvchilarning yana darsga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga va charchab qolmasliklari uchun ancha foydali bo'lardi deb o'ylaymiz.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar, ta'lim mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan qarorlar ta'limni hayot bilan bog'lashni, o'qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab qilayapti. Keng qamrovli islohotlarta'lim-tarbiya masalalari mohiyatini oshirib, barkamol shaxsni shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratishni taqazo etmoqda. Buning uchun ta'lim jarayonida nafaqat ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar hamkorligidan iborat faol usullarni, balki ta'lim oluvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ham ta'minlovchi interfaol usullardan ham foydalanish kerak bo'ladi. Shundagina har bir dars o'quvchiga tez va samarali yetkaziladi u o'z oldiga qo'yan maqsadiga erishadi. Tasviriy san'at darslarida ko'rgazmalai qurollardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ko'rgazmalilikning muhim bir turi xarita-sxemalar bo'lishi mumkin. Bunda har bir o'qituvchi o'ziga yaqin bo'lgan mahalliy materiallardan ham foydalansa, nur ustiga nur bo'lar edi. Ko'rgazmali qurol me'yoridan qo'llanilishi lozim. Haddan tashqari ortiqcha ko'rgazmali vosita o'quvchilarni toliqtiradi; fikrni asosiy masaladan chetlashishga olib keladi; o'quv materiali uchun ajratilgan vaqtning etishmasligiga sabab bo'ladi. Ko'rgazmalilik tamoyilining mohiyati o'qituvchi o'rganilayotgan adabiyot 11 fani va undagi faoliyatlar xaqida o'quvchilarga aniq, ravshan tasavvur yaratishidadir. Bunday tasavvurlar adabiyotni yanada chuqurroq tushunish uchun zamin hisoblanadi. Shuni aytib o'tish joizki, ko'rgazmalilik faqat bilimlar manbai rolini bajarib qolmaydi, balki o'quvchilarning rivojlanishlariga ham ta'sir qiladi. Ko'rgazmalilikni qo'llash tafakkur va nutqning rivojlanishiga yordam beradi, konkretan abstraktga o'tishni osonlashtiradi, idrok va diqqatni uyushtirishga ko'maklashadi.



Quyidagi usullar ham tasviriy san'at darslarini samarali tashkil etishda yordam beradi.

“Ijodiy mashq” usuli. Ushbu usul o'ziga xos xususiyarga ega bo'lib, o'ziga xoslik rasmlarni tasvirlashning mohiyatini chuqur anglash, uni bajarishga nisbatan yondashish, dalillarni saralash va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni ijodiy bajarish jarayonida bilimlarni qo'llash va kengaytirish kabi holatlar bilan tavsiflanadi.


“Evristik ta'lim” usuli. Bunda o'qituvchi tomonidan turli vositalar yordamida yangi bilimlarni izlab topish. To'garak rahbari bilimlarning bir qismini tinglovchilarga, ma'lum qiladi qolganini esa o'quvchilar topshiriqlarni echish jrayonida savollarga javoblar toppish asosida o'zlashtiradi o'zlari bilimlarni mustaqil egallashadi.

“O'z xotirangni sinovdan o'tkaz” usuli. Bunda o'qituvchi o'z mavzularidan kelib chiqib, qog'ozga berilgan topshiriq (mavzuga oid rasmni) eslab qolish asosida to'g'ri va xatosiz chizishlari lozim.

“Buni bilgan yaxshi” usuli. Bunda o'quvchilarga yangi ma'lumotlar beriladi. Me'morlar, konstruktorlar va o'qituvchilar uchun rasm chizishni bilish qanchalik zarur ekanligini gapirmasa ham bo'ladi. Lekin san'atkorlarning yo'li boshqa. San'atkor borliqni o'z asarlarida tasvirlar ekan, u hech mahal uni mexanik ravishda ko'chirmaydi. Aks holda u yaratgan san'at asarlarining fotograf yaratgan asarlardan farqi qolmaydi. Tasviriy san'at fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib o'quvchilarni ijodkor, komil, mustaqil fikrga ega bo'lgan insonlar bo'lib shakllanishiga yordam beradigan, nafosat tarbiyasini qalbiga singdiradigan fanni ta'limiy – tarbiyaviy ahamiyatini oshirishga uslubiy yordam tariqasidadir.


Amaliy rasm chizish jarayonida o'quvchilar o'zlarining qobiliyati, iqtidori, iste'dodi va talantini namoyish etadi. Har bir insonning faqat san'at bilan ochiladigan qopqoqchasi bo'ladi deyiladi. Bola amaliy ishlar bajarish orqali o'zining iste'dodini ko'rsatadi. Chunki tasviriy san'at darslarining hamma turlarini o'qitish jarayonida kompozitsiya yaratiladi. Bu esa ijodiy ish hisoblanadi. Shu orqali o'quvchilarning bilim, kunikma va malakalari shakllanib boradi.

Inson tana qismlarini chizib o'rganamiz




Inson lablarini tasvirlash

Inson ko'zlarini tasvirlash



Tasviriy san'at darslarida amaliy mashqlar ham yaxshi samara beradi. O'quvchi ushbu mashqlar orqali ham o'z qobiliyatini rivojlantirishi mumkin.

Takrorlashga oid amaliy mashqlar



“**Videotopishmoq**” metodi. Ma’lumki, videokonferensiya uyushtirilgan vaqtda shaxslar bir-birlarini real vaqtda ko‘radi va eshitadi, ma’lumotlar bilan almashinadi. Xuddi shu jarayonda qo‘llanilgan videotopishmoq metodi o‘qitishning samaradorligiga yordam beradi.

Videotopishmoq metodida foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o‘quvchilar e’tiboriga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydilar;
- o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradilar;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etadilar.

“**Muzyorar**” usuli. **Bunda** – muomaladagi to‘siqlarni yengib o‘tishga va o‘zaro munosabatlardagi «muzni» yorishga qaratilgan mashqdir. Muzyorar, birinchidan, tanishuv jarayonini rivojlantiradi, ikkinchidan, ishtirokchilarni o‘zini bimalol his qilishlariga yordam beradi.


Treninga kirish jarayonida har bir ishtirokchi o‘zini tanishtiradi. Auditoriyadagilarning sonidan, kurs boshida umumiy kayfiyatidan va boshqa holatlardan kelib chiqib, trener quyidagi tanishuv usullarini tanlashi mumkin:

- **Juftliklarda besh daqiqalik suxbat**, so‘ngra har bir ishtirokchi o‘zining suhbatdoshini tanishtiradi.
- **Doirada koptokcha bilan o‘ynash** - bunda qo‘liga koptokcha tushgan har bir ishtirokchi o‘z ismini hamda o‘zi haqidagi ma’lumotni aytishi kerak bo‘ladi.

O‘xshash va o‘xshash bo‘lmagan xususiyatlarini top. Agar trening vaqti kam chegaralangan bulsa, tanishuvning kengroq shakllaridan foydalanish mumkin. Masalan, trening ishtirokchilarini 5-6 ta ishtirokchidan iborat kichik guruhlariga bo‘lib, har bir guruhga guruh a‘zolarini o‘zaro bog‘laydigan 5 ta umumiy o‘xshash xususiyatlarni yoki hammada har xil bulgan 3 ta xususiyatni topish topshirig‘i beriladi. So‘ngra guruhlar barcha guruh ishtirokchilarining ismini aytib, topshiriq natijasini taqdim etadilar.

Tasviriy san’at fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib o‘quvchilarni ijodkor, komil, mustaqil fikrga ega bo‘lgan insonlar bo‘lib shakllanishiga yordam beradigan, nafosat

tarbiyasini qalbiga singdiradigan fanni ta'limiy – tarbiyaviy ahamiyatini oshirishga uslubiy yordam tariqasidadir.



Amaliy

rasm chizish jarayonida o'quvchilar o'zlarining qobiliyati, iqtidori, iste'dodi va talantini namoyish etadi. Har bir insonning faqat san'at bilan ochiladigan qopqoqchasi bo'ladi deyiladi. Bola amaliy ishlar bajarish orqali o'zining iste'dodini ko'rsatadi. Chunki tasviriy san'at darslarining hamma turlarini o'qitish jarayonida kompozitsiya yaratiladi. Bu esa ijodiy ish hisoblanadi. Shu orqali o'quvchilarning bilim, kunikma va malakalari shakllanib boradi.

“3x4” texnologiyasi. Texnologiyaning tavsifi. Ushbu mashg'ulot o'quvchilarni aniq bir muammoni yakka holda (yoki kichik jamoa bo'lib fikrlab hal etish, yechimini topish, ko'p fikrlardan keragini tanlash, tanlab olingan fikrlarni ummlashtirish va ular asosida qo'yilgan muammo(yoki mavzu) yuzasidan aniq bir tushuncha hosil qilishga, shuningdek, fikrlarni ma'qullay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya talaba (yoki o'quvchi)lar bilan avval yakka holda,so'ngra ularni kichik guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi.

Texnologiyaning maqsadi: o'quvchilarning erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga,jamoat bo'lib ishlashga,intilishga;fikrlashni jamlab,ularni nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga; jamoaga o'z fikrini o'tkazishga, uni ma'qullashga;qo'yilgan muammoni yechishda va mavzuga umumiy tushuncha berishda o'tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo'llay olish o'rganish.



Texnologiyaning qo'llanishi: seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka tartibda (yoki kichik guruhlariga ajratilgan holda) o'tkazish hamda guruh a'zolarini bir necha marotaba joylarini o'zgartirib berilgan vazifalarni bajarishga mo'ljallangan.

Tasviriy san'at darslarida mustaqil ishlash ham yaxshi natijaga erishishda yordam beradi.

“Motivatsiya” usuli. Maqsad: O'quvchilarni o'tilgan mavzuni mustahkamlashdan oldin, shu mavzu bo'yicha o'quvchilarni darsga tayyorlash ya'ni zamin hozirlash. Bizga ma'lumki o'quvchilar mavzuni o'qituvchi tushuntirib berishi chog'ida va o'zi darslikdan o'qib o'zlashtirishi mumkin. Lekin bu degani sinfda hamma o'quvchilar o'zlashtira oladi degani emas. Chunki hamma o'quvchilarning xotirasi, fikrlash doirasi birdayin bo'lmaydi. Shuning uchun ularga turli xil o'yinlar, sahnali ko'rinishlar, bahs-munozaralar orqali darslar tashkil qilinsa, sinfdagi uncha yaxshi o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar ham mavzu haqida tushuncha hosil qilibgina qolmasdan, mustahkamlab oladi. Dars jarayonida o'tilgan mavzuni mustahkamlash chog'ida, avvalombor, o'quvchilarni darsga tayyorlab olishi kerak. Yaxshi dars o'tilishi, o'quvchilarning yaxshi o'zlashtira olishi eng birinchi navbatda o'qituvchi o'quvchilarni o'ziga jalb qilishi, o'tilgan mavzuni dab-durustdan boshlab, ularga o'tilgan mavzu yuzasidan topshiriqlar berishdan emas, aksincha o'quvchilarni o'tilgan mavzu haqida qisqacha tasavvur hosil qilib olishiga bog'liq. Bu usul ko'proq o'quvchilarni darsga tayyorlab olishi, o'tilgan mavzuni takrorlab, mustahkamlashga zamin hozirlash uchun ishlatiladi. Bu usul 5-11-sinflarda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq. Guruhlar belgilanadi. O'quvchilar guruhlariga 5- 7 kishidan bo'linishlari kerak. Guruhlariga bo'lish chog'ida guruhlarining kuchlari teng bo'lishiga ahamiyat berish lozim. Har bir guruhga 2-3 ta yaxshi o'zlashtira oladigan o'quvchilarni va unga yaxshi o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarni joylashtirib bo'lish kerak. Har bir guruh o'ziga nom qo'yish kerak. Buning uchun o'qituvchi guruhlariga quyidagicha murojaat qiladi: „Siz guruhga nom qo'yayotganda quyidagilarga e'tibor bering?“ Siz guruhingizga o'tilgan mavzuning ichidan biror-bir voqeani keltirib chiqaruvchi so'zlar yoki o'tilgan mavzuning asosiy mazmunlaridan birini tashkil etuvchi so'zlar orqali nom qo'ying; Guruhingiz bilan bu nomni nima uchun qo'yanligingizni aytib berish uchun tayyorlaning (1-minut vaqt beriladi). Har bir guruh



nom qo'yib bo'lgandan so'ng, u guruhlardan bu nomni nima uchun qo'yganligi so'ralishi kerak. Yuqoridagilarni o'tkazib bo'lgandan so'ng, o'quvchilar o'tilgan mavzu haqida qisqacha tushuncha hosil qilib, o'quvchilar mavzuni mustahkamlash uchun zamin hozirlanadi. Keyin o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun shu guruhlarga savollar, topshiriqlar berish mumkin.

Mustaqil ishlar: Bu vaqtda bolalar akvarel buyog'i bilan tiniq ranglardan foydalangan holda allaprima usulida ishlash ham mumkin. Bunda birdaniga qil qalam bilan rasmni chizadilar. Ular qo'yidagicha ko'rinishlarda bo'qladi.

Birinchi bosqich – qog'oz varag'ini suvda tuliq namlab olinadi, politrani tayyorlaydi, qil qalamning bir necha turidan foydalanish mumkin. Katta yuzalarni, osmon kabi orqa fonlarni ranglab oladilar.

Ikkinchi bosqich – chizilayotgan narsalarning eng harakterlisini topish va uning ranglarini qog'oz varag'iga tasvirlash, joylarini aniq qilib belgilab olish. Suvni iloji boricha toza xolda ishlatishga e'tiborni qaratish lozim.

Uchunchi bosqich – suratni eng xarakterli joylarini, soya va yorug'likka doir kurinishlarning rangini qo'yiladi. Bunda ham buyoqlarning bir – biriga aralashib ketishi ishning aniqligini beradi.

Suratlarni ishlab tugatgandan keyin yaxshi bijarilgan ishlarni doskada hammaga ko'rinarli qilib quyib tahlil qilinadi. Bir darsning o'zida bir nechta bunday rasm ishlash mumkin.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir yetish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqolada keltirilgan zamonaviy metodlar o'quvchida mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.



Xullas, yuqorida keltirilgan metodlarni turli xildagi o'yinlar orqali davom ettirish mumkin. Oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri har bir o'quvchiga puxta va chuqur bilim berish, tasviriy san'at faniga qiziqishini oshirish, ularning har tomonlama rivojlanishlarini ta'minlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tasviriy san'at ta'limi konsepsiyasi. Toshkent, 1996-yil
2. Hasanov R. Maktabdatisviriysan'atnio'qitishmetodikasi. T.: «Fan», 2004-yil.
3. San'at tarixi" Toshkent. "San'at" nashriyoti, 2001-y.
4. Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2005-yil, 61-b.
4. Internet saytlari: -ZiyoNet .uz, - kitob.uz